



THE ROLE OF THE PEDAGOGICAL EDUCATION CLUSTER IN MILITARY EDUCATION

Nodirbek Tokhirovich Kholikov

Lieutenant Colonel

Doctor of Philosophy (PhD) in History

Senior Lecturer at the Department of National Pride and Military Patriotism

Institute of Ground Forces, University of Military Security and Defense

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Innovative cluster of pedagogical education, cluster model, cluster system, subjects of the cluster system, classical cluster, artistic cluster.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article discusses modern teaching technologies and the methodological approaches associated with them, aimed at creating favorable conditions for forming essential knowledge, important regularities, and numerous fundamental concepts in teachers in a relatively easy, in-depth, and sustainable manner.

HARBIY TA'LIMDA PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERINING O'RNI

Nodirbek Toxirovich Xolikov

Podpolkovnik

Katta o'qituvchisi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo'shinlar instituti

Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasida

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri, klaster modeli, klaster tizimi, klaster tizimining subyektlari, klassik klaster, badiiy klaster.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar o'qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish maqsadida qulay shart-sharoitlarni yaratish haqida fikr yuritilgan.

РОЛЬ КЛАСТЕРА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВОЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Нодирбек Тохирович Холиков

Подполковник

Доктор философии (PhD) по истории

старший преподаватель кафедры национальной гордости и военного патриотизма

Института сухопутных войск

Университета военной безопасности и обороны

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инновационный кластер педагогического образования, кластерная модель, кластерная система, субъекты кластерной системы, классический кластер, художественный кластер.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные образовательные технологии и связанные с ними методические подходы, направленные на создание благоприятных условий для формирования у педагогов необходимых знаний, важных закономерностей и множества фундаментальных понятий в относительно доступной, глубокой и устойчивой форме.

Respublikamizda fan va texnika sohasidagi yangiliklarni ta'lim-tarbiya dasturlari mazmuniga tez singdirishni talab etadi va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Shu jumladan zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar o'qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish maqsadida qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda o'qituvchilar bilim va kasbiy mahoratlarining zamon talablariga mosligi, ularning mavjud o'quv-laboratoriya va texnika jihozlaridan dars jarayonida oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan amaliy laboratoriya mashg'ulotlari sifat-samaradorligi, o'quvchi bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirishi uchun har bir mavzuning ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda olib borilishini ta'minlash talab etiladi.

Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to'g'risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham dolzarb masalalar qatorida ilm-fan va ta'lim, ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy hayot munosabatlariga alohida urg'u berilganligi ahamiyatlidir.

Shunday ekan, ta'lim-tarbiya tizimining markazida inson kapitali, uni to'g'ri taqsimlash, undan o'rinli foydalanish va maqsadli yo'naltirish turar ekan, bunda maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'lim tizimini jamiyatning barcha manfaatdor tomonlari, ta'lim jarayonining barcha subyektlari bilan yaxlit bir butunlikda davr talablari asosida tashkil etish hamda ta'limning to'liq uzluksizligiga erishish oldimizda turgan asosiy omil bo'lmog'i lozim.

So'nggi yillarda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga yangicha innovatsion yondashuvlar, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlarni taraqqiyot ko'zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qayta ko'zdan kechirish lozimligini talab etmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so'nggi yillarda ta'lim tizimini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, jumladan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017 yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi, Prezident Qarorlarida o'z aksini topgan.

Tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik ta'lim yo'nalishlarini muvofiqlashtirish, istiqbolni rejalashtirish, ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi aloqa va o'zaro uyg'unligining sustligi, ta'lim subyektlari faoliyatidagi tarqoqlik hududda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning to'la qondirilmaligi va ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'lgan.

Darhaqiqat, ishlab chiqarish tarmoqlarida xomashyoni yetishtirib berish, qayta ishlab chiqarish va tayyor mahsulotga aylantirish hamda uni realizatsiya qilish ketma-ketligi zanjiri mavjud bo'lib, ushbu ketma-ketlik pedagogik ta'lim-tarbiya tizimida ham inson kapitali ko'rinishida mavjud. Bu esa ishlab chiqarishda samarali bo'lgan klaster modelini ta'lim-tarbiya tizimida ham qo'llashni nazariy jihatdan mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy jamiyatning barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim tizimlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni innovatsion klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish lozim.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat samaradorligi natijasini yangi darajaga ko'tarish orqali yuqori sifatga erishish imkonini beradi.

Klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy, ilmiy, innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi,

yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega innovatsion ta'lim-tarbiya mutaxassislarini tayyorlashni amalda oshirishdir.

Pedagogik ta'lim-tarbiyani rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, yangi o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari o'rtasida uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalaridan foydalanish kabi yo'nalishlarda o'z aksini topadi.

Quyidagilar klaster tizimining subyektlari sifatida ishtirok etadi:

– talabalar, magistrantlar, doktorantlar pedagogik amaliyot o'taydigan, ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan o'quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o'taydigan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shma ta'lim muassasalari;

– ta'limning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda kattalarning qo'shma ta'lim tizimi muassasalari, bolalar va o'smirlarning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;

– hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan va uni belgilaydigan ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;

– pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;

– xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda ahamiyatini kengaytiradi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, zamonaviylik, yo'naltirilganlik, o'zaro hamkorlik, hamfikrlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi.

Pedagogik ta'lim klasteri faoliyatining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

– pedagogika sohasida samarali eng yaxshi o'quvchilarni pedagog kasbiga targ'ib qilish;

– pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini amaliyotga tayangan holda va manfaatdor subyektlar bilan samarali aloqasini intensiv ta'minlagan holda olib borish;

– bo'lajak ta'lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo'lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish;

- yosh mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarni egallash davrini qisqartirish;
- talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirok etishini ta‘minlash;
- pedagogik ta‘lim-tarbiya jarayonida yangi avlod o‘quv, o‘quv-metodik, ilmiy adabiyotlar, vositalar va didaktik materiallar majmuasini yaratish;

- pedagogik ta‘lim ilmiy, ilmiy-pedagogik salohiyat samaradorligini oshirish;
- pedagogik ta‘lim-tarbiyani rivojlantirishning dolzarb masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash;

- ta‘lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlarini izlab topish va ta‘limga tatbiq etish;

- ta‘lim va tarbiya uzviyligini ta‘minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish hamda takomillashtirish;

- pedagog kadrlarni tayyorlashda maktabgacha, o‘rta ta‘lim va oliy ta‘lim muassasalari hamda boshqa talabgorlar bilan o‘zaro tezkor qayta bog‘lanish imkoniyatini yaratish;

- pedagogik ta‘lim-tarbiya jarayonidagi aloqadorlik, bog‘liqlik va hamkorlik zaruriyatini ilmiy asoslash.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri quyidagi vazifalarni bajaradi:

- viloyatdagi ta‘lim muassasalari uchun zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakaga ega pedagog kadrlarni tayyorlash;

- ta‘lim sifatini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish;

- pedagogika sohasida ilmiy faoliyatni izchil yo‘lga qo‘yish;

- ta‘lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishda asosiy (darslik) va yordamchi (lug‘atlar, qomuslar, elektron manbalar va b.) vositalari mazmun-mohiyatining ta‘lim bosqichlari kesimidagi uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash;

- viloyatdagi ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarining bilim saviyasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida viloyat Xalq ta‘limi boshqarmasi bilan hamkorlikda muddatli o‘quv kurslari tashkil qilishni yo‘lga qo‘yish;

- umumta‘lim maktablarida fanlarni o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilish maqsadida viloyat Xalq ta‘limi boshqarmasi bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy seminarlar tashkil qilish hamda amalga oshirish;

- institutdagi professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy markazlar va tayanch oliy ta‘lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro andazalarga mos tajribalarni amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish;

- umumta‘lim maktablarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish layoqatiga ega o‘qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilishga e‘tiborni qaratish;

– pedagogika sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish maqsadida yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida amaliyotlarni amalga oshirish.

Bunda ta‘lim muassasalari va jamiyatning boshqa manfaatdor tomonlarini o‘zaro uzviy va uzluksiz aloqasini ta‘minlash, ta‘lim jarayonining pirovard mahsuli – har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni yetishtirish va jamiyatga naf keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma‘naviy, ma‘rifiy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Chunki kadrlar bilim, ko‘nikma va malakalarining saviyasi va raqobatbardoshligi iqtisodiy ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va jamiyatning boshqa sohalarida taraqqiyoti va raqobatbardoshligining asosidir. Boshlagan har bir ishimizdagi sifat va samaradorlik aynan shu masala bilan chambarchas bog‘liqligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi va qolaversa hayotning o‘zi yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Mushtarak qilib aytadigan bo‘lsam, ta‘lim-tarbiya jarayonida ta‘lim oluvchilarda kommunikativ, axborot bilan ishlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kabi tayanch bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategisiya to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Peculiarities of Training Engineering Students with Disabilities. International Journal: Engineering Pedagogy, Volume 11, No4 (2021)-pp148-164. Scopus

<https://doi.org/10.3991/ijep.v11i4.21361><https://online-journals.org/index.php/ijep/article/view/21361><https://online-journals.org/index.php/ijep/article/view/21361/9527>

3. Organizing Students’ Independ Work at Universites for Professional Competencies Formation and Personality Development. International Journal of Instruction, e-ISSN: 1308-1407 www.e-iji.net Scopus October 2021, Vol.14, No4 p-ISSN: 1694-609X, pp.503-528

4. Self-employment trends amid the pandemic. Журнал Business and Society Review (2021) Scopus